



MODA VA SAN'AT UYG'UNLIGIDAGI NOODATIY SUMKALAR

Raximova Kamola G'ayratovna

Jumayeva Sabrina Sherzodovna

raximovakamola96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20020257>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil

Ma'qullandi: 28-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 30-aprel 2026 yil

KEYWORDS

noodatiy sumkalar,
aksesuarlar, moda va san'at,
dizayn, identitet, estetik qiymat,
funkcionallik, madaniyat.

ABSTRACT

Ushbu maqola noodatiy sumkalar fenomeni moda va san'at uyg'unligi kontekstida sumka dizaynining rivojlanishini tahlil qiladi. Maqolada sumkalarni oddiy amaliy aksessuar sifatidan tortib, san'at asarigacha ko'taruvchi jarayon ko'rib chiqiladi: "funktsiya + estetik + identitet" birikmasi sumka dizaynida qanday namoyon bo'lishi, san'at va moda chegarasidagi dizayn tendensiyalari, shuningdek, noodatiy sumkalar jamiyat, madaniyat va shaxsiy ifodadagi roli tahlil qilinadi. Turli turdagi noodatiy sumkalar rassomiy, haykaltaroshlik va arxitektura inspiratsiyali, madaniy va zamonaviy tendensiyalarga mos misollar orqali ko'rsatiladi. Maqola, shuningdek, noodatiy sumkalar afzalliklari (individualizm, estetik tanlov, barqarorlik, identitet ifodasi) va kamchiliklari (yuqori narx, foydalanishdagi cheklovlar, funkcionallik masalalari, san'at/aksesuar chegarasining munozarali tabiati) haqida ham so'z yuritadi. Yakunda, noodatiy sumkalar moda va san'at kesishmasida yangi tafakkurni, estetik didni va shaxsiy identitetni aks ettiruvchi muhim buyumlar ekanligi xulosa qilinadi.

Moda - bu nafaqat liboslar yig'indisi balki san'at va ijodning bir shakli hisoblanadi. Obrazni to'ldiruvchi, shaxsiy uslubni ifodalovchi, amaliy yoki bezak vazifasini bajaradigan qo'shimcha buyumlar ham mavjud bo'lib bu aksessuarlar deyiladi. Aksessuarlar insonning tashqi ko'rinishini boyitadi, obrazga ohang, xarakter va individuallik qo'shadi. Aksessuarlar turlariga taqinchoqlar (uzuk, marjon, sirg'a, bilaguzuk), sumkalar (qo'l sumkasi, ryukzak va krossbody), bosh kiyimlar (shlyapa, kepka, do'ppi va boshqalar), ko'zoynaklar (quyoshdan himoya qiladigan ko'zoynak va tibbiy ko'zoynak), belbog'lar, sharflar, ro'mollar, soatlar va qo'lqoplarni misol tariqasida keltiriladi. Bularni orasida sumkalar kengroq kontekstda shaxsiy ifoda, madaniy tendensiyalar, hamda estetik qarashlarning aksidir. So'nggi yillarda "noodatiy sumkalar" tushunchasi ostida kundalik sumkalar an'anaviy ko'rinishidan butunlay farq qiluvchi, aslida san'at va dizayn kesishgan nuqtada yaratilgan noyob buyumlar paydo

bo'lmoqda. Ushbu maqolada biz sumka dizaynining moda va san'at uyg'unligi nuqtai nazaridan shakllanib borayotgan taraqqiyotini tahlil qilamiz.

Sumka - funksional predmet, odamlar unda shaxsiy buyumlarini olib yuradi. Ammo agar dizayner yoki rassom uni oddiy sumka sifatida emas, balki "estetik jihatdan jozibador predmet" sifatida ko'rsa, sumka oddiy narsadan ko'ra ko'proq bo'ladi. U san'at va moda kesishmasida yangi mantiq yaratadi. Shunday qilib, sumka "funktsiya + estetik + identitet" kombinatsiyasiga aylanadi. San'at tarixidagi shakllar masalan, to'qimalar, bo'yoq, bezak, kompozitsiya uslublari moda dizayniga o'tadi va aksessuarlarga yangi ruh bag'ishlaydi. Bu jarayon aslida "ijodiy sanoat" doirasiga kirib, modadan tortib interyer, aksessuarlar hammasi san'at, dizayn va amaliy funktsiyani birlashtiradi.

Noodatiy sumkalar turlari va ularga misollar sifatida quyidagi turlar ko'zga tashlanadi: San'at asariga aylangan sumkalar masalan, BiArtis brendi san'at va charm - sumka birlashmasini ilgari surdi, har biri rassomlar tomondan bo'yalgan, noyob, kolleksionlik sumkalar.



1-rasm. BiArtis sumka

Bunday sumkalar devordagi rasm kabi emas, balki ko'tarib yuriladigan san'at obyektini ichidagi material, bo'yoq, shakl va ishlab chiqarish jarayoni mahorat bilan uyg'unlashgan.

Haykaltaroshlik yoki arxitektura uslubidagi sumkalar (skulyptural sumkalar). Bu turdagi sumkalar geometrik, asimmetrik shakllar, haykaltaroshlik elementlari, arxitektura-inspiratsiyalardan foydalanish bilan yaratiladi. Bunday sumkalar estetik jihatdan qudratli "sumka" atamasini kengaytirib, "kiyiriladigan haykaltaroshlik" kontsepsiyasini yaratadi.



2-rasm. Haykaltaroshlik va arxitektura sumkalari

Moda, madaniyat va jamiyat holatini aks ettiruvchi sumkalar. Sumkalar vaqt va jamiyat bilan birga “tashqi ko‘rinish, ichki identitet va madaniyat” aloqasini o‘rnatadi. Tarixdan misollar keltirilsa XIX–XX asrlarda sumkalar nafaqat buyum, balki zamon ruhining ko‘rsatkichi bo‘lgan.



3-rasm. Noodatiy shakldagi sumkalar

Nima uchun odamlar noodatiy sumkalarni tanlaydilar degan savol paydo bo‘lishi mumkin, bunga quyidagicha javob beriladi.

- individualizm va o‘zini ifoda etish, bunda standart sumkalar ortidan ko‘pchilik moda egalari o‘z shaxsini ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Noodatiy sumka o‘ziga xos identitet, estetik tanlovdir.

- san‘atga hurmat va estetik qadriyat, noodatiy sumkalar ko‘pincha qo‘l mehnati, rassomlik, noyob dizayn orqali yaratiladi, ya‘ni oddiy ommaviy bozor emas, balki san‘at buyumi.

- moda trendlariga qarshi tabiiylik va barqarorlik izlayotganlar uchun esa ba‘zi dizaynerlar va brendlar barqaror, amaliy hamda estetik jihatdan nodir sumkalar yaratishga intilmoqdalar.

- moda va san‘at kesishmasidagi yangi tendensiyalar bu ko‘pchilik dizaynerlar va rassomlar moda ko‘rgazmalarida, ko‘rgazmalarda sumkalarni “san‘at buyumi” sifatida taqdim etilmoqda, bu esa asosan noodatiy sumkalar bo‘lishi mumkin.

Noodatiy sumkalar jamiyat va madaniyatga ta‘sir qiladi. Sumkalar orqali moda va san‘at jamiyati ham birlashadi, odamlar kundalik hayotida san‘atni olib yuradilar, devordan emas, balki yelkada. Bu san‘atning xalqaro demokratizatsiyasi bo‘lishi mumkin. Noodatiy sumkalar kollektorlik obyekti bo‘lishi mumkin ular vaqt o‘tishi bilan san‘at asariga aylanadi. Masalan, san‘at asarlarining qiymati bilan bog‘liq. Jamiyatda moda tanlovi orqali o‘zlikni ifoda qilish, guruh identiteti yaratish, estetik didni namoyish qilish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Tanganing ikkinchi tomini bo‘lgani singari noodatiy sumkalarni murakkabliklari va tanqidiy jihatlar ham bo‘lishi mumkin. Ularga quyidagicha ta‘rif beriladi:

- Odatda noodatiy sumkalar cheklangan nusxalarda, qo‘l mehnati bilan tayyorlanadi va keng iste‘mol uchun mo‘ljallanmagan mahsulotlardan farq qiladi. Shu bois ular qimmatga tushadi va ehtiyotkorlik bilan saqlashni talab etadi.

- estetik jihatdan jozibali bo‘lishi mumkin, lekin hammaga qulay bo‘lmasligi mumkin masalan, foydalilik, mustahkamlik va kundalik ishlatishga qulaylik nuqtai nazaridan ular oddiy sumkalardan farq qiladi.

- moda va san‘at chegarasi noaniqdir, bir kishiga sumka san‘at asari kabi ko‘rinishi mumkin, boshqasiga esa oddiy aksessuar sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa munozarali masala hisoblanadi.



4-rasm. Louis Vuitton, Chanel, Hermes va Gucci sumkalari

Dunyo moda sanoatida bir nechta sumka brendlari alohida obro'ga ega. Masalan, **Hermès** sumkalari yuqori sifat, qo'l mehnati va eksklyuzivligi bilan mashhur bo'lib, Birkin va Kelly kabi modellari kolektorlar orasida katta qadrlanadi. **Chanel** klassik va elegant dizayni bilan tanilib, uning sumkalari har doim moda trendlariga qaramay "timeless (zamondan qat'i nazar qadri o'zgarmaydigan)" qiymatga ega. **Louis Vuitton** esa keng tarqalgan monogram dizayni va amaliy funkcionalligi bilan mashhur bo'lib, kundalik hayotda ham, prestij belgisi sifatida ham qadrlanadi. Shu bilan birga, **Gucci** va **Prada** sumkalari kreativ dizayn va minimalistik uslubi bilan yoshlar va moda ixlosmandlari orasida ommalashgan. Ushbu brendlar nafaqat sifat va uslub, balki moda va shaxsiy imidjni ifodalash vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Noodatiy sumkalar moda va san'at chegarasida tug'ilgan noyob aksessuarlardir: ular oddiy sumkadan ko'ra ko'proq "funktsiya + estetik + identitet" uyg'unligini ifodalaydi. Bunday sumkalar ijodkorlik va dizayn orqali kundalik hayotni san'at bilan bog'laydi, shaxsiy ifodani, madaniy didni va individual uslubni namoyon etadi. Shu bilan birga, ularning cheklangan nusxa, yuqori narx va kundalik foydalanishdagi funkcionallik va chidamlilik masalalari mavjud; moda va san'at orasidagi chegaraning noaniqligi esa bahsli. Xulosa shuki, noodatiy sumkalar nafaqat aksessuarlardan, balki moda, san'at va shaxsiy identitetning ko'prigi bo'lib, ularga nisbatan munosabat bu tanlov, did va ijod davrasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hermès. (2024). History of Hermès Handbags. [Online]. Available: <https://ru.wikipedia.org/wiki/Herm%C3%A8s>
2. Xingzirain.com. (2024). 2024 Fashion Bag Trends: A Perfect Blend of Functionality and Style. Available: <https://www.xingzirain.com/uz/news/2024-fashion-bag-trends-a-perfect-blend-of-functionality-and-style/>
3. Rakhimova Kamola Gayratovna "CREATING A RANGE OF MODERN CLOTHES FOR GIRLS" American Journal Of Applied Science And Technology page 13-18 Volume 04 Issue 07-2024 <https://www.theusajournals.com/index.php/ajast/article/view/3340>
4. Raximova Kamola G'ayratovna Baynazarova Lobar Xamdani Boltayeva Marjona Talib kizi "Ijodiy manbadan foydalanib kostyum dizayni loyihasini yaratish texnologiyasi" eurasian JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 Volume 4, Issue 6, June 2024 ISSN 2181-2020 Page 101-108 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545303>
5. Raximova K., & Boltayeva I. . (2025). MODANING YOSHLAR DUNYOQARASHI VA IJTIMOY HAYOTIDAGI O'RNI. Yevrosiyo Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 5(9), 81–85. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/59945>. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17152052>
6. Raximova K., & Boltayeva I. (2025). DIZAYNING DUNYO USLUBLARIDAGI O'RNI. Yevrosiyo Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 5(9), 86–90. Retrieved from

<https://inacademy.uz/index.php/ejar/article/view/59946>.

DOI:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17152422>

7. M.K. Urozov, K.G. Rakhimova, M.A. Fayziyeva, A.Z. Mustanova "Creation of new assortiments of sewing items from fabrics of mixed fiber structure" page 227-231 DOI: <https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-11-51>, <https://eipublication.com/index.php/eijmrms> Volume: 02 Issue: 11 November 2022 Published Date: - 23-11-2022

8. M.K. Urozov, K.G. Rakhimova, M.A. Fayziyeva, A.Z. Mustanova "RATIONAL USE OF FABRICS WHEN SEWING WOMEN'S OUTERWEAR IN THE NEW STRUCTURE" page 28-31 DOI: <https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-11-08> <https://eipublication.com/index.php/eijmrms> Volume: 02 Issue: 11 November 2022 Published Date: - 09-11-2022

9. Raximova K. ., Allanazarova N. ., & Turdiyeva M. (2025). ETNODIZAYN: AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK UYG'UNLIGI. Yevrosiyo Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 5(10), 131-136. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/62473>. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17394509>

10. Rakhimova Kamola Gayratovna, Baynazarova Lobar Xamdam qizi "ANALYSIS OF STYLE TYPES OF CLOTHES" American Journal Of Applied Science And Technology (ISSN – 2771-2745) <https://doi.org/10.37547/ajast/Volume04Issue07-05>

11. Raximova Kamola G'ayratovna "Issiqni saqlash xossasi yuqori bo'lgan gazlamalardan chaqaloqlar kiyimlariga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish" EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 page 115-122 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545839>

12. Rakhimova K.G. "Talabalarga imkoniyati cheklangan bolalar kiyimlarini tikish usullarini o'rgatish texnikasi" Eurasian journal of academic research page 142-148 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11263298>

13. Dadamirzayev B.B. Axmadjanov A.O. "BOLALAR SPORT USLUBIDAGI KIYIMLARI UCHUN GAZLAMA TANLASH TADQIQI" "Экономика и социум" №6(97)-2 2022 www.iupr.ru 57-60 b.

14. Raximova Kamola G'ayratovna Baynazarova Lobar Xamdam qizi Boltayeva Marjona Talib kizi "Bolalar kiyimlariga qo'yiladigan talablarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish" EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH UIF = 8.1 | SJIF = 7.899 Volume 4, Issue 6, June 2024 ISSN 2181-2020 Page 109-114 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11545775>